


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**60110800 – Ona tili va adabiyoti
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining**

MALAKA TALABI

Toshkent – 2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil "___" _____ dagi ___ - sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsif.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar	8
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	10
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	11
	Bibliografik ma'lumotlar	16
	Kelishuv varag'i.....	17

1. Umumiy tavsif

60110800 – Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki shaklda amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriyat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60110800 – Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalar;

bakalavriyat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:

umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'limda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o'rta maxsus va professional ta'limda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

maktabdan tashqari ta'limda uslubchi, to'garak rahbari sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'limda laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

nodavlat va notijorat jamoat birlashmalari va tashkilotlarida;

ommaviy axborot vositalarida;

davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus va professional ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

ona tili va adabiyot muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish;

ona tili va adabiyot fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60110800 – Ona tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajara olishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va MO'Dlarining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani tashkil etish: ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini

diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ona tili va adabiyot sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

ona tili va adabiyot fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadli holda qidirish va topish, ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda erishilgan yangi natijalarni amaliyotga tatbiq etish;

ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

ilmiy-tadqiqot jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ilmiy jurnallarda maqolalar chop ettirish orqali sohadagi ilmiy muhokamalarda faol ishtirok etish;

ona tili fanini o'qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularning amaliy samaradorligini o'rganish;

ona tilini o'rganish jarayonida madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiruvchi interfaol metodlardan (rolli o'yinlar, case study, virtual muloqotlar) foydalanish orqali innovatsion dars modellarini ishlab chiqish;

fanlararo integratsiya asosida ona tili darslarini ijtimoiy fanlar, tarix va madaniyat bilan uyg'unlashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

ona tili va adabiyot va uni o'qitish metodikasiga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globalashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar:

Maktab ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, STEAM) joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari, asosiy maqsadlarini bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrlash bo'yicha o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishlari, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish, egallagan kompetensiyalarini qay darajada rivojlanganligini xalqaro tajribalar va tahlillar asosida takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

og'zaki va yozma shaklda ona tili va davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olish;

nutqiy kompetensiyalar (gapirish, yozish, o'qib tushunish, tinglab tushunish), lingvistik kompetensiyalar (grammatika, leksika) hamda badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, tadqiqotchilik va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda ko'pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy, mutaxassislik fanlarining asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish, darsni tashkil etishda "SMART" dars texnologiyasidan samarali foydalana olish, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun foydalaniladigan "5E" hamda "4K" metodik yondashuv ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatleri, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish orqali badiiy tafakkurni shakllantirish;

globallashtirish sharoitida milliy manfaatlarni anglash va himoya qilishga yo'naltirilgan ta'limiy loyihalarni amalga oshirish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlik g'oyalarini singdirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olish;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartira olish;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunish va yuzaga kelishi mumkin

bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilish hamda o'quv darslarida texnika xavfsizligini ta'minlash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish hamda mediasavodxonlik, global internet tarmoqlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash hamda tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirish;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni subyektlarining hamkorlikdagi faoliyati va shaxslarning o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallash;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning shakllanganligi hamda uzoq vaqt davolanishni talab qiladigan o'quvchilar bilan samarali ishlash uchun gospital pedagogika texnologiyalariga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarda o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik hamda mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik;

texnologik jarayonlar bo'yicha texnik reglament, texnologik va texnik jihatdan tartibga solish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Ona tili va adabiyoti (qozoq tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

tilshunoslik asoslari, hozirgi qozoq adabiy tili, qozoq tilini o'qitish metodikasi, qozoq dioloktologiyasi, turkiy yozuvlar tarixi, qozoq tili tarixi, nutq madaniyati va ifodali o'qish, qozoq tili onomastikasi, turkologiya tarixi kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Ona tili va adabiyoti (rus tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

tilshunoslik asoslari, hozirgi rus adabiy tili, rus tilini o'qitish metodikasi, rus dialektologiyasi, rus tili tarixi, qiyosiy tipologiya, rus tili propedevtik kursi, nutq madaniyati va notiqlik san'ati, adabiyotshunoslik asoslari, rus adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, rus adabiyotini o'qitish metodikasi, MDH adabiyoti, jahon adabiyoti, bolalar adabiyoti, yozma ishlarni tashkil etish metodikasi kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ona tili va adabiyoti (tojik tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

tilshunoslik asoslari, hozirgi tojik adabiy tili, ona tilini o'qitish metodikasi, tojik dialektologiyasi, matnshunoslik, tojik tili tarixi, tojik tilining nazariy

grammatikasi, adabiyotshunosli asoslari, tojik adabiyoti tarixi, tojik folklori, adabiyot o'qitish metodikasi, jahon adabiyoti, jomiyshunoslik, bolalar adabiyoti, yangi tojik adabiyoti kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ona tili va adabiyoti (qoraqolpoq tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

Til bilimi tiykarlari, Ádebiyattanıw tiykarlari, Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili, Xalıq awızeki dóretiwshiligi, Qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı, Qaraqalpaq tili praktikumı, Qaraqalpaq dialektologiyasi, Qaraqalpaq tili hám ádebiyatın oqıtıw metodikasi kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ona tili va adabiyoti (turkman tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

Til bilimi tiykarlari, Ádebiyattanıw tiykarlari, Házirgi túrkmen ádebiy tili, Xalıq awızeki dóretiwshiligi, Túrkmén ádebiyatı tarixı, Túrkmén tili praktikumı, Túrkmén dialektologiyasi, Jáhán ádebiyatı, Túrkmén tili hám ádebiyatın oqıtıw metodikasi, Türk halklarynyň edebiyaty, Ulıwma til bilimi, Maqtumqulıtanıw, Çagalar edebiyaty kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ona tili va adabiyoti (qirg'iz tili) ta'lim yo'nalishiga oid:

Hozirgi qir'giz adabiy tili, Halq og'zaki ijodi, Qir'giz adabiyoti tarixi, Qirg'iz tili praktikumi, Qirg'iz dialektologiyasi, Jahon adabiyoti, Manasshunoslik, Qirg'iz tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, Turkiy xalqlar adabiyoti, Umumiy tilshunoslik, Aytmatovshunoslik, Bolalar adabiyoti kabi fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi xususiyatiga ko'ra, tegishli kursda o'zlashtirilgan fan doirasida fundamental bilimlarga tayangan holda amaliy ishlar bo'yicha malaka hosil qilinadi.

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibidagi malakaviy amaliyoti 5-8-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyoti;
2. Pedagogik amaliyot;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

4.1. Qozoq tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MSvAX1205	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.06	TA1106	Tilshunoslik asoslari	180	6	1
1.07	AdAs1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.08	HozQAT1204	Hozirgi qozoq adabiy tili I	120	4	2
1.09	HozQAT13410	Hozirgi qozoq adabiy tili II	300	10	3,4
1.10	HozQAT15608	Hozirgi qozoq adabiy tili III	240	8	5,6
1.11	XOI1204	Xalq og'zaki ijodi	120	4	2
1.12	QozAT1204	Qozoq adabiyoti tarixi I	120	4	2
1.13	QozAT13409	Qozoq adabiyoti tarixi II	270	9	3,4
1.14	QozAT15608	Qozoq adabiyoti tarixi III	240	8	5,6
1.15	QozTilP1204	Qozoq tili praktikumi	120	4	2
1.16	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.17	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.18	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	3
1.19	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.20	QD1405	Qozoq dialektologiyasi	150	5	4
1.21	JadAH15608	Jahon adabiyoti	240	8	5,6
1.22	QTilAdO'M15608	Qozoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	240	8	5,6
1.23	TXA1805	Turkiy xalqlar adabiyoti	150	5	8
1.24	Util1706	Umumiy tilshunoslik	180	6	7
1.25	Abaysh1706	Abayshunoslik	180	6	7
1.26	QTS1805	Qozoq tili stilistikasi	150	5	8
		Jami:	4590	153	1-8
2.00.		Tanlov fanlari	990	33	3-8
	Kvalifikatsiya	Qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1440	48	1,4, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

4.2. Rus tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.05	DEN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.06	MK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.07	RTP11212	Rus tili praktikumi	360	12	1,2
1.08	ChetEAT112316	Chet el adabiyoti tarixi	480	16	1,2,3
1.09	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish	180	6	3
1.10	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.11	InkT.GP1405	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	4
1.12	MSVAX1405	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	4
1.13	RusAT13409	Rus adabiyoti tarixi I	270	9	3,4
1.14	RusAT15608	Rus adabiyoti tarixi II	240	8	5,6
1.15	RusAT1706	Rus adabiyoti tarixi III	180	6	7
1.16	ZozRTTA13411	Zamonaviy rus tili tilshunoslik asoslari bilan I	330	11	3,4
1.17	ZozRTTA15609	Zamonaviy rus tili tilshunoslik asoslari bilan II	270	9	5,6
1.18	KSXBD1604	Kasbiy sohada xalqaro baholash dasturlari	120	4	6
1.19	ZozRTTA17809	Zamonaviy rus tili tilshunoslik asoslari bilan III	270	9	7,8
1.20	RusTS1305	Rus tili stilistikasi	150	5	3
1.21	RTO'M1505	Rus tili o'qitish metodikasi	150	5	5
1.22	HAJ16808	Hozirgi adabiy jarayon	240	8	6,8
1.23	RAO'M1705	Rus adabiyotini o'qitish metodikasi	150	5	7
		Jami:	4800	160	1-8
2.00.		Tanlov fanlari	900	30	3-8
	Kvalifikatsiya	Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Malakaviy amaliyot	1320	44	1,2, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

4.3. Qirg'iz tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.04	Ao't.O'TSQ 1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	2
1.05	MSvAXM 1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	1
1.06	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.07	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.08	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	3
1.09	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.10	TA1106	Tilshunoslik asoslari	180	6	1
1.11	AA1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.12	HQAT12345622	Hozirgi qir'g'iz adabiy tili	660	22	2,3,4,5,6
1.13	XOI1204	Xalq og'zaki ijodi	120	4	2
1.14	QAT12345621	Qir'g'iz adabiyoti tarixi	630	21	2,3,4,5,6
1.15	QTP1204	Qirg'iz tili praktikumi	120	4	2
1.16	QD1405	Qirg'iz dialektologiyasi	150	5	4
1.17	JA1604	Jahon adabiyoti	120	4	6
1.18	MANAS1405	Manasshunoslik	120	4	5
1.19	QTvAO'M15610	Qirg'iz tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.20	TXA1805	Turkiy xalqlar adabiyoti	150	5	8
1.21	UT1706	Umumiy tilshunoslik	180	6	7
1.22	Aytmatov1806	Aytmatovshunoslik	180	6	8
1.23	BA1804	Bolalar adabiyoti	120	4	8
		Jami:	4620	154	1-8
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-8
	Kvalifikatsiya	Qirg'iz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Jami:	6420	214	
		Malakaviy amaliyot	780	26	1,4, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

4.4. Qoraqalpoq tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.04	Ao't.O'TSQ 1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	2
1.05	MSvAXM 1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	1
1.06	SB.O'DICHM13 06	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.07	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.08	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	3
1.09	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.10	KSXBD1604	Kasbiy sohada xalqaro baholash dasturlari	120	4	6
1.11	TA1106	Tilshunoslik asoslari	120	4	1
1.12	AdAs1105	Adabiyotshunoslik asoslari	120	4	1
1.13	HQAT12345622	Hozirgi qoraqalpoq adabiy tili	750	25	1-6
1.14	HOI1204	Xalq og'zagi ijodi	120	4	2
1.15	QAT12345621	Qaraqalpoq adabiyoti tarixi	660	22	2-6
1.16	QTP1204	Qaraqalpoq tili praktikumi	150	5	3
1.17	QD1405	Qaraqalpaq tili tarixi va dialektologiya	240	8	4,5
1.18	JA15608	Jahon adabiyoti	120	4	5
1.19	AT1604	Adabiyot nazariyasi	120	4	6
1.20	QTvAO'M1561 0	Qoraqolpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	240	8	5,6
1.21	O'TGQTO'1704	O'zga tilli guruhlarda qoraqalpoq tilini o'qitish	120	4	7
1.22	Util1706	Umumiy tilshunoslik	120	4	7
1.23	NMS1705	Nutq madaniyati va stilistika	120	4	7
1.24	HAJAT1806	Hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqid	180	6	8
1.25	BA1804	Bolalar adabiyoti	120	4	8
		Jami:	4860	162	1-8
2.00		Tanlov fanlari	840	28	4,7-8
	Kvalifikatsiya	Qoraqolpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Jami:	5700	190	
		Malakaviy amaliyot	1320	44	1,4, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

4.5. Tojik tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.03	Ao't.O'TSQ 1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.04	MSvAXM1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	1
1.05	TF1104	Tojik folklori	120	4	1
1.06	AA1106	Adabiyotshunoslik asoslari	180	6	1
1.07	O'EYaT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TA1205	Tilshunoslik asoslari	150	5	2
1.09	TD1204	Tojik dialektologiyasi	120	4	2
1.10	TAT12345620	Tojik adabiyoti tarixi	600	20	2,-6
1.11	HTAT12345620	Hozirgi tojik adabiy tili	600	20	2,-6
1.12	SB.O'DICHM1306	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.13	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.14	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	3
1.15	TBA1304	Tojik bolalar adabiyoti	120	4	3
1.16	JA13408	Jahon adabiyoti	240	8	3,4
1.17	DIN1405	Dinshunoslik	150	5	4
1.18	TTO'M15610	Tojik tilini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.19	TAO'M15608	Tojik adabiyotini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.20	YTA1705	Yangi tojik adabiyoti	150	5	7
1.21	UT1805	Umumiy tilshunoslik	150	5	8
1.22	AN1804	Adabiyot nazariyasi	120	4	8
		Jami:	4620	154	
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1620	54	3-8
	Kvalifikatsiya	Tojik tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.			
		Jami:	6240	214	
		Malakaviv amaliyot	780	26	2, 4-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

4.6. Turkman tili va adabiyoti

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.04	Ao't.O'TSQ 1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	180	6	2
1.05	MSvAXM1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (media literacy)	150	5	1
1.05	SB.O'DICHM13 06	Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	180	6	3
1.06	TB1404	Ta'limda baholash	120	4	4
1.06	InkT.GP1305	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	150	5	3
1.07	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.08	TA1106	Tilshunoslik asoslari	180	6	1
1.09	AA1105	Adabiyotshunoslik asaslari	150	5	1
1.10	HTAT12345622	Hozirgi Turkman adabiy tili	660	22	2,3,4,5,6
1.11	XOI1204	Xalq og'zaki ijodi	120	4	2
1.12	TAT12345621	Turkman adabiyoti tarixi	630	21	2,3,4,5,6
1.13	TTP1204	Turkman tili praktikumi	120	4	2
1.14	TD1405	Turkman dialektologiyasi	150	5	4
1.15	JA15608	Jahon adabiyoti	240	8	5,6
1.16	TTHAO'M1561 0	Turkman tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	300	10	5,6
1.17	TXA1805	Turkiy xalqlar adabiyoti	150	5	8
1.18	UT1706	Umumiy tilshunoslik	180	6	7
1.19	MAQ1806	Maqtumqulishunoslik	180	6	8
1.20	BA1804	Bolalar adabiyoti	120	4	8
		Jami:	4620	154	1-8
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-8
	Kvalifikatsiya	Turkman tili va adabiyoti fani o'qituvchisi			
		Jami:	6240	214	
		Malakaviy amaliyot	780	26	1,4, 5-8
		Davlat attestatsiyasi (BMI)	180	6	8
		Jami:	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 494:375:894.375

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyoti, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, umumiy tilshunoslik, hozirgi adabiy til, adabiyotshunoslik asoslari, adabiyot tarixi, xalq og'zaki ijodi, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman) tili va adabiyotini o'qitish metodikasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi.

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor v.v.b. _____

Z. Raxmanov

2025-yil « _____ »

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor _____

A. Xoliqov

2025-yil « _____ »

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi

Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b. _____

D. Norboyeva

2025-yil « _____ »

M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor _____

G. Muxamedov

2025-yil « _____ »

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor _____

J. Karshibayev

2025-yil « _____ »

M.O'.